

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 199 (1260), 2024-yil 1-oktabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



USTOZINI E‘ZOZLAGAN JAMIYAT RAVNAQ TOPADI, O‘QITUVCHISINING QADR-QIMMATI BALAND XALQNING OBRO‘-E‘TIBORI YUKSAK BO‘LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishdi, O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi hamda soha vakillari bilan ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan muloqot o‘tkazdi.



Har bir rivojlangan mamlakat kabi O‘zbekiston ham o‘z taraqqiyotini ta’limga asoslanib qurmoqda. Bu sohada chuqur islohotlar, katta-katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda eng muhim bo‘g‘in, yoshlar siyosatining poydevori — boshlang‘ich va umumiy ta’limdir.

Yurtimizda 37 mingdan ziyod bolalar bog‘chasi, 10 mingdan ortiq maktab bor. Joylarda yana yangilari qurilmoqda. Lekin bu maqsadning bir qismi. Eng asosiy masala — ta’lim sifati. Shu bois, pedagog va mutaxassislar malakasi doimiy oshirib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 21-iyunda qabul qilingan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir qarori bu tizimni yangi bosqichga ko’tardi. Jumladan, shu sohadagi institut Abdulla

Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga aylantirildi. Mavjud majmua kapital ta’mirlanib, ikkita qo‘shimcha bino qurildi, barchasi zamonaviy jihozlandi. Tinglovchilar o‘rni ham, yo‘nalishlar ham ko‘paydi. Eng muhimi, malaka tizimi mazmunan boyidi.

Institut bundan 90 yil oldin, 1934-yilda ochilgan. Shunga bag‘ishlab, bu yerda muzey tashkil etilgan. Unda jadid bobolarimizning ilgma e’tibori, Abdulla Avloniy asos solgan maorif tizimi, o’sha davrdagi darsliklar va sahna asarlari, umumiy ta’limning rivojlanish

bosqichlari aks etgan. Sun’iy intellekt yordamida ma’rifatparvar jadidlar qiyofasi gavdalanitirilgan. Shu yerda qariyb 88 ming kitob fondiga ega kutubxona ham bor. Davlatimiz rahbari ushbu muzey va kutubxonani ko‘zdan kechirdi.

Davomi 2-beta

JAHON BANKI BILAN ISLOHOTLAR DASTURINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-sentabr kuni Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha vitse-prezidenti Antonella Bassanini qabul qildi.

Jahon banki guruhi bilan strategik hamkorlikni yanada kengaytirish hamda ushbu yetakchi xalqaro moliya instituti tomonidan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dasturini qo‘llab-quvvatlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida vitse-prezident Antonella Bassani davlatimiz rahbariga Jahon banki prezidenti Ajay Banganing samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbat chog‘ida ikki tomonlama hamkorlik bugungi yuksak darajaga yetgani va samarali tus olgani chuqur mamnuniyat bilan qayd etildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz bankning eng yirik hamkorlari qatoriga kirdi — loyihalar portfeli bir necha barobar ko‘payib, hozirgi kunda 12 milliard dollardan oshdi.

Jahon banki iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha barqarorligini ta’minlashga qaratilgan muhim islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashmoqda. Joriy yilning iyul oyidan Toshkent shahrida bankning mintaqaviy vakolatxonasi faoliyat boshladi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish, davlat korxonalari va banklarini transformatsiya qilish, karbonsizlashtirish, JSTga

a‘zo bo‘lishni qo‘llab-quvvatlash va boshqa yo‘nalishlar hamkorlikni yanada kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiya, energetika va irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish dasturlariga, xususi sektorini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mintaqaviy loyihalarni ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni

E‘TIROF, RAG‘BAT VA IMKONIYATLAR

PEDAGOGLARNI O‘Z USTIDA ISHLASHGA RUHLANTIRMOQDA

1-oktabr jamiyat taraqqiyotida o‘qituvchi va murabbiylarning muhim o‘rni borligini ta’kidlaydigan ezgulik bayramidir. O‘zbekistonda bu kun o‘z hayotini kelajak avlodni o‘qitish va tarbiyalashga bag‘ishlagan ustozlarga hurmat va minnatdorlik ramzi bo‘lgan umumxalq shodiyonasiga aylandi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi va ular markazida o‘qituvchilar turibdi. Yangi qonunlar qabul qilinishi, davlatimiz taraqqiyot strategiyasining amalga oshirilishi, shuningdek, zamonaviy ta’lim uslublarining joriy etilishi ta’lim tizimini sifatli rivojlantirish uchun asos bo‘lmoqda.

Davomi 5-beta



O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, yurtimizdagi ta’lim-tarbiya sohasi xodimlarini O‘qituvchi va murabbiylar kuni — umumxalq bayrami bilan chin qalbindan muborakbod etib, barchangizga eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Xalqimiz o‘zining azmu shijoati, bunyodkorlik salohiyati bilan Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan bugungi kunda ushbu ulug‘ ayyomning mohiyati, muallim va ustozlarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati ayniqsa ortib bormoqda.

El-yurtimiz azaldan e‘zozlab keladigan o‘qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish — biz amalga oshirayotgan davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishiga aylangani ham shundan dalolat beradi.

Zero, donishmandlar aytganlaridek, mamlakat, avvalo, yerdan rizq-nasiba undiradigan dehqonlar, xalqni yovdan, turli yovuzliklardan himoya qiladigan askarlar, yosh avlodga ta’lim va tarbiya beradigan fidoyi muallimlarning sa’y-harakati bilan obod va farovon bo‘ladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Keyingi yillarda milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida yurtimizda ta’lim va tarbiya tizimida ham tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa fursatda sohaga oid ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o‘qituvchining maqomi alohida belgilab qo‘yildi.

Respublikamizda har yili yangi-yangi ta’lim maskanlari barpo etilib, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining zamon talablariga mos yangi avlodi yaratilmoqda.

Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi dunyodagi ilg‘or tajribalar asosida mutlaqo yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Yurtimizdagi bolalar bog‘chalari soni 8 barobar oshib, salkam 38 mingtaga, jumladan, nodavlat ta’lim muassasalari 250 tadan 29 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76,4 foizga yetgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Bu haqda so‘z yuritganda, oxirgi yetti yilda

5 mingdan ziyod maktabda, shu yilning o‘zida esa 608 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari bajarilganini ta’kidlash lozim.

Ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta’lim joriy etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 288 ming nafardan ortiq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bepul ovqatlanishi yo‘lga qo‘yildi.

Xususiy sektor rivoji uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetgani diqqatga sazovordir.

Biz inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan ulkan ishlarimiz doirasida o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash va rag‘batlantirishga alohida ahamiyat bermoqdami.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning ish haqi 2016-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 marta, professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi esa 4,5 karra o‘sgani, oktabr oyidan pedagog xodimlarning ish haqi yana 15 foizga oshirilishi shu boradagi sa’y-harakatlarimiz natijasidir.

Ta’lim sifatini yuksaltirish maqsadida pedagoglarning malakasini oshirish bo‘yicha yagona va vertikal tizim yaratildi.

Davomi 2-beta

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI



Mazkur maqola Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-beta qarang.

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

USTOZINI E‘ZOZLAGAN JAMIYAT RAVNAQ TOPADI, O‘QITUVCHISINING QADR-QIMMATI BALAND XALQNING OBRO‘-E‘TIBORI YUKSAK BO‘LADI

► Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda hozirga qadar 142 nafar o‘qituvchi ilg‘or xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi. Maktab direktori lavozimiga tayinlash tizimi takomillashtirilib, ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi o‘rnatildi.

Ta‘lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e‘tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san‘at, sport sohalarida yuksak marralarni qo‘lga kiritayotgani barchamizni mamnun etmoqda.

O‘quvchilarimiz 2010-2016-yillarda xalqaro fan olimpiadalarida 73 ta medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, so‘nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o‘zida esa 122 ta medalg sазovor bo‘lgani ham birinchi navbatda sizlarning mashaqqatli mehnatingiz samarasidir.

Bu borada xalqaro fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarning ustozlarini rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgani va shu maqsadda Davlat budjetidan 6 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgani muhim rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta buyuk allomalarimizga bag‘ishlangan xalqaro fan olimpiadalarini o‘tkazishni boshladik. Bu esa farzandlarimiz, butun xalqimiz qalbidagi g‘urur va iftixor tuyg‘usi bilan birga, dunyoda O‘zbekistonning ma‘rifiy nufuzini ham yuksaltirmoqda.

Maktabda ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarlarni o‘rgatish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Joriy o‘quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o‘quvchiga ikkita xorijiy tilni o‘qitish, 289 ta maktabda 40 mingdan ortiq o‘quvchiga kasb-hunar o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta‘lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatda yurtimizda 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetkazilgani,

Xalqaro tadbir

SAMARQAND YANA BIR NUFUZLI ANJUMANGA MEZBONLIK QILADI

Joriy yil 2-5-oktabr kunlari Samarqand shahrida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusida xalqaro anjuman o‘tkaziladi.

Mahalla o‘zaro mehr-oqibat, bag‘rikenglik, do‘stlik, hamkorlik rishtalarini qaror toptirish, inson kamoloti va jamiyat rivojini ta‘minlashga xizmat qiladigan maskandir. Shu bois, o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi bo‘lgan ushbu tuzilmaning jamiyatimizdagi nufuzini oshirish, huquq va vakolatini kengaytirish borasida ulkan ishlar bajarilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalla institutining maqomi mustahkamlandi. Barcha soha va yo‘nalishlar bo‘yicha “mahallabay” ishlash tizimi joriy etilib, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili amaliyotga tatbiq etildi.

Oxirgi yillarda tizimni takomillashtirishga doir yuzga yaqin me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, “mahalla yetiligi”dan iborat ta‘sirchan tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdaги “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarda muhim huquqiy asos bo‘lmoqda. Ushbu huquqiy hujjatga ko‘ra, mahallani xalq bilan davlat o‘rtasida ko‘priк vazifasini bajaruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanirish, joylarda aholini qiynayotgan muammolar o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari hamda tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa‘y-harakatini birlashtirish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan edi.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yilning o‘tgan davrida bu yo‘nalishda izchil ishlar qilindi. Jumladan, mahallalar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qator huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi. “Mahalla yetiligi” hamkorligi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar tayyorlanib, mahallalarga yetkazildi.

Mahallada qog‘oz shaklidagi hujjatlar rasmiylashtirilishi bekor qilinib, “yettilik” tomonidan alohida yuritilayotgan tarqoq platformalar o‘rniga “Raqamli mahalla” yagona elektron platformasi ishga tushirildi. Aholi muammolari bilan ishlash va “mahalla yetiligi” faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha uzluksiz ishlaydigan “Call-markaz” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Har bir mahallaning

tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetgani misolida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Qadrli do‘stlar!

Ko‘hna tarix, bugungi hayot tajribasi barcha muammolarning yechimi, savollarning javobi faqat va faqat ta‘limda, kamolot va baxt eshiklarining kaliti ta‘lim va tarbiyada ekanidan dalolat beradi.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarga yetishda — jonajon O‘zbekistonimizni erkin va farovon, har tomonlama obod mamlakatga aylantirishda soha rivojini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sizlar bilan bo‘lib o‘tgan sermazmun va samimiy muloqotimizda bu haqda xana bir bor fikr almashib, kelajak rejaralarimizni aniq belgilab oldik.

Ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o‘qituvchilarimiz ta‘lim sohasidagi islohotlarimizda yanada faol ishtirok etib, “Yangi O‘zbekiston — ma‘rifiy jamiyat” degan olijanob g‘oyamizni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shasiz.

Hech shubhasiz, biz ta‘lim va tarbiya tizimini yanada ravnaq toptirish, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasiga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat beramiz va o‘qituvchilikni jamiyatimizda eng obro‘li kasblar qatoriga olib chiqamiz.

Muhtaram ustozlar!

Mana shu shukhli ayyomda siz, azizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, eزgu va sharafli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatni tilayman.

Hamisha sog‘-omon bo‘ling, qadrli va mehribon ustozlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

► Boshlanishi 1-betda

Muassasada malaka oshirish va qayta tayyorlashning an‘anaviy, muqobil hamda dual shakllari, shu jumladan, sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish joriy etilgan. Situatsion o‘quv xonasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari bilan videoaloqa orqali ulangan. Uzluksiz kasbiy ta‘lim, menejerlik o‘quv kurslari, pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish va malaka toifasini berish, maktabgacha va maktab ta‘limini boshqarish kabi dasturiy platformalar joriy etilgan. Bu hududlardagi direktor va o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiya va uslublarga tezkor o‘qitish imkonini beradi.

Bugungi kunda maktab direktori nafaqat tajribali pedagog, balki yaxshi boshqaruvchi, ma‘lum ma‘noda strateg ham bo‘lishi kerak. Institut o‘quv dasturida bunga katta e‘tibor qaratilib, direktorlar maktabi tashkil etilgan.

Inklyuziv ta‘lim va psixolog xonalarida shu yo‘nalishda ishlaydigan defektolog va tarbiyachilar malakasi oshiriladi. Media studiyada videodarslar tasvirga olinadi. Shuningdek, institutda konferensiya zali, kompyuter va seminar xonalari, oshxona va sharoitlar bor.

Ma‘lumki, bugun mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat qaratilib, maktablar zamonaviy jihoz va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlanmoqda. Bu o‘qituvchilardan shunga moslashishni, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. “STEM” laboratoriyasi pedagoglarni shu borada qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta‘lim talabidan kelib chiqib, institutda o‘qish soatlari ko‘paytirildi. O‘qituvchilarga munosib sharoit yaratish maqsadida yotoqxona zamonaviy ta‘mirlanib, o‘rinlar soni oshirildi.

Prezidentimiz ushbu xonalarda bo‘lib, yangi qulaylik va imkoniyatlar bilan tanishdi.

— Bu institut kutib o‘tiruvchi emas, targ‘ibotchil, yetakchi bo‘lishi kerak. Hududlardagi o‘qituvchi va direktorlarni ko‘proq taklif etib, barcha maktablarda sifatini oshirish zarur. Yangi zamon kishisi, kelajagimiz bunyodkorlari maktabda tarbiyalanadi. Ta‘limsiz kelajak yo‘q. — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu yerda dars beradigan o‘qituvchi va murabbiylarni xorijda o‘qitish, dunyodagi ilg‘or tajribalarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Joriy yilning o‘tgan davrida institutda 4 ming 300 nafarga yaqin ta‘lim muassasalari rahbarlari malaka oshirdi. Shuningdek, 2 ming nafarga yaqin direktor va direktorlikka nomzodlar menejerlik kurslarida o‘qitildi. “Uzluksiz kasbiy ta‘lim” platformasi orqali darslarda 113 ming nafardan ortiq pedagoglar qatnashdi.

Singapur xalqaro ta‘lim tashkiloti tomonidan 100 nafar maktab direktori, 200 nafar matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchisi qayta tayyorlandi. Institut tuzilmasida Xalqaro tadqiqotlar markazi ham ish boshladi.

Umuman, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlari rahbar, pedagog hamda mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirishning uzluksiz tizimi yo‘lga qo‘yiladi. 2025-yildan boshlab ular besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshiradi. Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” hamda “Kasbiy rivojlanish kuni” joriy etiladi. Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga keng tatbiq qilinadi.

Shundan so‘ng 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining boshida barcha ta‘lim-tarbiya xodimlarini bayram bilan samimiy tabriklab, xalqimizning chuqur hurmat-ehtiromini yetkazdi.

— Biz ustozni otadek ulug‘ deb bilgan, uni hamisha boshiga ko‘tarib e‘zozlagan buyuk, ma‘rifatparvar xalqning vakillarimiz. Tariximizdagi qaysi mashhur ajdodimizni olmaylik, ularning barchasi ustozlarga yuksak ehtirom bilan qaraganlariga guvoh bo‘lamiz. Ustozini, muallimni e‘zozlagan jamiyat, albatta, ravnaq topadi, gullab-

yashnaydi. O‘qituvchisining qadr-qimmati baland bo‘lgan xalqning obro‘-e‘tibori yuksak bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Hayotda har bir eزgulik, har bir kashfiyot va yutuqning zamirida o‘qituvchining mehnati, bardoshi va mehr-muhabbati mujassam ekani ta‘kidlandi.

— Ta‘lim — sohalar ichida eng dolzarbi, maktab — eng muhimi bo‘lsa, o‘qituvchilik kasblar orasida eng ulug‘idir. Shaxsan men o‘qituvchi deganda, o‘zim uchun aziz va qadrlil bo‘lgan zotlarni, yuz-ko‘zidan nur yog‘ilib turadigan mo‘tabar insonlarni tasavvur qilaman. Ular zamonamizning eng ilg‘or kishilari, jonkuyar, vatanparvar, xalqparvar insonlardir. Shu sababli xalqimiz o‘zining eng katta boyligini — farzandlari tarbiyasini o‘qituvchilarga ishonib topshiradi, — deya ta‘kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Ustozlarning donishmandligi, hayot ma‘nosini chuqur anglab, odamlarni yaxshilikka va muvaffaqiyatlarga ruhlantirishi qayd etildi.

— Insonning ongi, dunyoqarashi o‘zgarmasa, jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarmasa, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. Odamlarning tafakkurini, shu asosda butun jamiyatni kim o‘zgartira oladi? Yangi beruniylarni, xorazmiy va farg‘oniylarni kim kamolga yetkazadi? Bunday ulug‘vor vazifani, tom ma‘nodagi tarixiy missiyani ado etishga faqat siz — ustoz va murabbiylar qodirsiz, — dedi Prezident.

Bugun yurtimiz o‘g‘il-qizlari xalqaro fan olimpiadalarida, sport maydonlarida ulkan marralarni qo‘lga kiritayotgani yodga olindi. Bu g‘alabalar, avvalo, ustoz-murabbiylarning fidokorona mehnati samarasi ekani e‘tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-sentabrdaги farmoniga muvofiq, ta‘lim-tarbiya tizimiga qo‘shgan munosib hissasi, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Marosimda ana shu mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

— O‘z mehnati bilan qadr topish, el-yurt ardog‘ida bo‘lish chinakam baxt. Bu, aynigsa, o‘qituvchi va murabbiylarga yarashadi. Qadringiz ham, qaddingiz ham doimo baland bo‘lsin, aziz ustozlar, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mukofotlanganlar nomidan so‘zga chiqqanlar ta‘lim sohasi va muallimlarga e‘tibori, kamtarona xizmatlarini yuksak baholagani uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqot qildi.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda ulkan maqsadlar belgilangan. Ularini amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bog‘liq.

Buning uchun o‘qituvchilar huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan himoya qilingan va yetarli ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizda o‘qituvchi maqomi alohida mustahkamlab qo‘yildi. Bu yil “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Davlatimiz boyligi, birinchi navbatda, yosh avlod tarbiyasiga sarflanmoqda. So‘nggi 7 yilda ta‘limni rivojlantirishga jami 216 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan 19,5 trillion so‘m sarflanib, 6 yildan 500 taga yetdi, nodavlat bog‘chalar 250 tadan 30 mingtaga ko‘paydi.

O‘qituvchilarga mahorati va erishgan yutuqlariga qarab to‘lanadigan ustamalar soni 3 tadan 17 taga oshirildi. O‘z ustida astoydil ishlagan, xorijiy sertifikat olgan 6 ming o‘qituvchi 10 million so‘mdan ziyod maosh olmoqda.

14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ularning dasturlari asosida tabiiy va aniq fanlar bo‘yicha zamonaviy darsliklar yaratilmoqda. Prezident maktablaridagi baholash tizimi hozir 500 ta umumta‘lim maktabida qo‘llanmoqda. Baholashni samarali yo‘lga qo‘ygan 66 ta maktab jamoasiga 40 foizgacha ustama to‘lanmoqda.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni seleksiya yo‘li bilan tanlab olish bo‘yicha ilgari bo‘lmagan yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Natijada bu yilning o‘zida xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz 122 ta medalni qo‘lga kiritdi.

Maktab bitiruvchilarini oliy ta‘limga qamrab olish darajasi so‘nggi 7 yilda 4 karra oshdi. Bu yil 310 ming nafar yoshlar talaba bo‘ldi. Ularning qariyb yarmi qizlardir.

Muloqotda davlatimiz rahbari ta‘lim sifati masalasiga alohida to‘xtaldi.

Davlat ta‘lim muassasalarida 46 ming nafar, xususiyl tashkilotlarda esa 38 ming nafar pedagog 5 yil davomida malaka oshirmagani qayd etildi. Bu yil sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan attestatsiya jarayonlarida 21 ming nafar pedagog malaka bo‘yicha yetarli ball to‘play olmagan. Afsuski, bunday holatlar o‘quvchilarning bilimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shu bois, ta‘lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish bog‘chalarida ham davomat, to‘lovlar, oziq-ovqat xarajatlarini shakllantirish to‘liq raqamlashtiriladi.

Birinchi yo‘nalish. Abdulla Avloniy nomidagi institut pedagoglarga kasb mahoratini oshirishga mas‘ul bo‘ladi. Institutning 12 ta hududiy markazini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash uchun yaqin 3-yilda byudjetdan har yili 50 milliard so‘m ajratiladi. Malaka oshirishda vazirlik — malaka oshirish markazi — maktab va bog‘chani bog‘laydigan vertikal tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, joylarda 1 ming 300 ta tayanch maktab va 200 ta bog‘cha tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tashkil etiladi. Buning uchun yetakchi o‘qituvchilarning ish haqiga 20 foiz ustama qo‘shiladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Muallimlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag‘batlantirish davom ettiriladi. Kelgusi o‘quv yilidan xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish yo‘lga qo‘yiladi. Sinovlarda 86 va undan yuqori ball olgan pedagoglar qo‘shimcha 70 foiz ustama oladi.

Davlatimiz rahbari “Yil o‘qituvchisi” tanlovi o‘tkazilib, 208 ta tuman va shahardan g‘olib bo‘lgan o‘qituvchilarga sovg‘a sifatida uy-joy berilishini e‘lon qildi.

Shuningdek, har yili sanatoriy va dam olish maskanlariga yuboriladigan o‘qituvchilar soni 2 barobar oshiriladi.

Bir yil oldin maktab direktorlarini o‘qitish tizimi joriy etilgan edi. Bugungi kunda ulardan 1 ming 206 nafari menejerlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Hozir ana shu direktorlarga o‘rtacha 3 million so‘m ustama berilmoqda.

Endi bu amaliyot 2025-yil 1-sentabrden bog‘cha mudiralariga ham tatbiq etiladi va ularga har oyda 30 foizgacha qo‘shimcha ustama to‘lanadi.

Bilimdon va jonkuyar o‘qituvchilar xalqning noyob boyligi ekani ta‘kidlanib, ular haqida “Ustozga ehtirom” nomli kitob va filmlar yaratish zarurligi aytiladi.

Uchinchi yo‘nalish. Aholi o‘sishi tufayli yiliga maktablarda 120 mingta, bog‘chalarda 30 mingta qo‘shimcha o‘ringa talab yuzaga kelmoqda.

Kelgusi yili byudjetdan ajratiladigan 3 trillion 200 milliard so‘m hisobidan 375 ta maktab va 97 ta bog‘cha rekonstruksiya qilinadi va yangilari quriladi.

Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki va OPEK jamg‘armasining 50 million dollar mablag‘i doirasida kelgusi 4 yilda 200 ta xususiy bog‘cha qurilib, yangi 30 mingta o‘rin yaratiladi.

Yangi yildan boshlab, xususiy sektorda o‘quvchi o‘rinlarini ko‘paytirish uchun maktab ochadigan tadbirkorlarga 20 milliard so‘mgacha kredit ajratiladi. Kredit foizining asosiy stavkadan 1,5 barobar oshgan qismi byudjetdan qoplanadi.

Shuningdek, yangi quriladigan xususiy maktab binolari uchun kommunal xarajatlarning 50 foizi 5 yil muddatgacha budjetdan to‘lab beriladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlar o‘z hisobidan maktab kursa, unga ketgan xarajatlar foyda solig‘idan ikki yil davomida teng ulushlarda chegirib tashlanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish. Ta‘limda sifat va raqobatni ta‘minlash uchun raqamlashtirish darajasi oshiriladi.

O‘tgan 5-yilda 13 ming 500 dan ortiq kompyuter sinf xonalari 200 mingta zamonaviy kompyuter bilan ta‘minlandi. Kelgusi yil yana 2 mingdan ziyod kompyuter sinflari yangilanadi, bunga byudjetdan 400 milliard so‘m beriladi.

Ana shu kompyuterlarga elektron ta‘lim kontentlari yuklanib, bolalar uchun mustaqil ta‘lim olish imkoniyati oshadi. O‘quvchilar murrakab konsepsiyalarni oson o‘zlashtirishi uchun aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha virtual laboratoriyalar tashkil etiladi. Yangi o‘quv yilidan boshlab bunday laboratoriyalar har bir viloyatda 10 tadan maktabda qilinadi.

Shuningdek, maktab tizimida o‘qituvchi o‘z imkoniyati va yutuqlarini, yangi ishlannmalarini e‘lon qilishi uchun yagona onlayn platforma yaratiladi.

Singapurlik 16 nafar ekspert matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kasb mahoratini oshiradi. Pedagoglar sun‘iy intellektga asoslangan ta‘lim platformasida bilimlarini bir yil davomida muntazam sinovdan o‘tkazadi.

Xususiy bog‘chalardagidek, 6 ming 800 ta davlat bog‘chalarida ham davomat, to‘lovlar, oziq-ovqat xarajatlarini shakllantirish to‘liq raqamlashtiriladi.

Beshinchi yo‘nalish. Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablar tajribasi ommalashtiriladi.

Bu yo‘nalishda yana 1 mingta umumta‘lim muassasasida Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablardagi baholash tizimini joriy etish boshlandi. Hokimliklarga ularni ta‘mirlash va zarur darajada jihozlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta‘lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo‘lga qo‘yish uchun pedagogik ta‘lim klasterlari tashkil qilinadi. Bu tajriba-sinov tariqasida dastlab Andijon va Buxoro shaharlarida barpo etiladi.

Oltinchi yo‘nalish. Iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish tizimi yangi bosqichga olib chiqiladi. Buning uchun xalqaro darajada fan olimpiadalariga tayyorlash markazi tashkil etiladi.

Rag‘batlantiriladigan xalqaro fan olimpiadalarini soni 18 tadan 22 taga yetkaziladi. Bunda nufuzli xalqaro olimpiadada oltn medal olgan o‘quvchiga 170 million so‘m, kumush medalg 102 million so‘m, bronza medal uchun 68 million so‘m mukofot puli beriladi.

Shu bilan birga, ana shu o‘quvchilarning o‘qituvchilar 50 milliondan 150 million so‘mgacha mukofotlanib, ularga bir yilda 100 foizlik ustama olish imkoni yaratiladi. Ilk bor xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar jamoasi rahbarlarini ham rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Prezident pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi stipendiyani tashkil etish tashabbusini bildirdi.

Yettinchi yo‘nalishda ta‘limning ajralmas qismi bo‘lgan tarbiya va odob-xloq masalalariga e‘tibor qaratiladi. Shu maqsadda Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti yangidan tashkil etildi.

Yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish, ota-onalar, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun tarbiyaga oid raqamli kontentlar yaratish muhimligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, bu borada teatr va kino san‘atidan foydalanish, yoshlar ijodini qo‘llab-quvvatlash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, kitobxonlikni yanada kengaytirish vazifalari ko‘rsatib o‘tildi.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida davom etdi. Bu yerga yig‘ilgan va hududlar orqali bog‘langan pedagoglar fikr va takliflarini aytdi. Prezidentimiz ularni qo‘llab-quvvatlab, takliflarini amalga oshirish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI HAR BIR INSON, OILA VA JAMIYAT FAROVONLIGIGA ERISHAMIZ



O‘ZLiDEP

Bugun Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi siyosiy maydonda yetakchi kuch sifatida o‘zini to‘la-to‘kis namoyon etib kelmoqda. Partiya o‘zining “Va’da emas – natija, ertaga emas – bugun” ezgu shiorini O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda kechayotgan izchil va hayotiy islohotlarni davom ettirish ma’nosida ko‘rmoqda.

Binobarin, partiya mamlakatimizdagi izchil islohotlarning bosh maqsadi insonga, uning erkin hayoti, qadr-qimmatini va farovonligiga qaratilganini e’tirof etadi va bu kurashda doim sobitqadam ekanini e’lon qiladi. O‘zbekistonda qulay investitsiya va biznes muhitini yaratish, sanoatning yuqori tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, sanoatning raqobatbardoshlik indekslari bo‘yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatorigan o‘rin egallashiga ko‘maklashish partiyaning ezgu maqsadlari hisoblanadi.

Shu ma’noda, partiya xalq farovonligi uchun 5 maqsad va 500 vazifani o‘z ichiga olgan saylovoldi dasturini ishlab chiqdi. Dasturdagi birinchi maqsad barqaror iqtisodiy o‘shish orqali har bir inson, oila va jamiyat farovonligiga erishish bo‘lib, bu partiyanning asosiy g‘oyalardan biridir.

Tadbirkorlik oddiy yoki to‘la ma’nodagi tushuncha emas. Uning zaminida rivojlanish, taraqqiyot va odamlarning ertangi kunga intilishi mujassam. Qolaversa, tadbirkorlik jamiyat hayoti, davlat manfaatlarini mujassamlashtirgan, inson erkinligi va hayotiy maqsadlari ro‘yobi yo‘lidagi salmoqli kuch-qudratdir. Shunday salohiyatga egaki, u harakatlansa, shiddat olsa, yurtini ham, odamlarni ham, davlat iqtisodiyotini ham yuqori bosqichga, istiqbol va yorqin yo‘llarga olib chiqadi. Bugun yurtimizda tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun qulay biznes muhiti yaratilgani, barcha muammolari hal etilayotgani tufayli sohada sezilarli natijalar qayd etilmoqda.

O‘zbekistonning dunyoning daromadli o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi asosiy maqsadimiz ekan, bu ham, avvalo, tadbirkorlarga qulay imkoniyat, erkinlik, qulay biznes muhiti yaratish orqali amalga oshiriladi. O‘ZLiDeP bu boradagi sa’y-harakatlarni davom ettirish yurt istiqboli uchun eng maqbul yo‘l deb hisoblaydi.

Biz 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni esa 4 ming dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz. Partiyamiz saylovoldi dasturida bu vazifa qat’iy belgilab qo‘yilgani esa hammamizga juda katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘zbekistondagi tadbirkorlar mamlakatiga aylantiramiz. Eng muhimi, biz haqiqiy fidoyi, yuragida o‘ti bor, elni, yurtini o‘ylaydigan tadbirkorlar tarafdaminiz. Ularni qo‘llab-quvvatlashdan hech qachon chekinmaymiz. Tadbirkorlar safini 3 million nafardan oshirish uchun barcha zarur choralarni ko‘ramiz. Faqat samarali mehnat, aql-idrok va sadoqat bilan o‘zimiz ko‘zlagan maralarga yetishimizga ishonamiz. O‘ZLiDeP bu yo‘lda doim sobitqadamdir.

Barqaror ish joylarini yaratib, kambag‘allikni qisqartiramiz

Keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini kichik va xususiy biznesga keng jalb etish, shu orqali daromadini oshirish, farovon hayot kechirishini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu ma’noda, yurtimizda kambag‘allik ko‘lamini ikki karra kamaytirish, eng avvalo, aholini tadbirkorlikka jalb qilishning mahallabay dasturlarini ishlab chiqish O‘ZLiDeP Saylovoldi dasturida asosiy masala sifatida belgilangan.

Ushbu dasturlarni hayotiy va xalqchil tarzda tayyorlashda O‘ZLiDeP “mahalla yetiligi” bilan ishlarni samarali tashkil etishga alohida e’tibor qaratadi. Maqsadimiz hududlarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va umumiy bandlikni oshirishga hissa qo‘shishdan iboratdir. Zotan, kichik va o‘rta biznes rivoji aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishga ko‘mak beradi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 43-moddasida davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rish belgilangan bo‘lib, shunga asosan, partiyamiz o‘z Saylovoldi dasturida tuman, shahar, mahallalarning alohida master-rejalarini ishlab chiqishni, tadbirkorlik ommaviy tus olishiga erishishni o‘z vazifasi deb biladi.

Tadbirkorlik jamiyat hayoti, davlat manfaatlarini mujassamlashtirgan, inson erkinligi va hayotiy maqsadlari ro‘yobi yo‘lidagi salmoqli kuch-qudratdir.

Partiya tomonidan “Kapital bozorini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish, kriptoaktivlar bozorini rivojlantirish va sohadagi qonunchilikni liberalashtirish, xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish bo‘yicha bildirilgan takliflar O‘zbekistonda moliya bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish va unda kichik biznes ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunni takomillashtirishda faol ishtirok etamiz.

Barqaror, sodda va adolatli soliq siyosati tarafdorimiz

Biz soliq ma’muriyatchiligi tizimini soddalashtirish, barcha tadbirkorlar uchun soliqni to‘lash borasida adolatli va teng sharoitlar yaratish, soliq stavkalarining o‘zgarmasligini ta’minlovchi siyosat yuritilishi yo‘nalishida ish olib boramiz.

Shu jihatdan aylanmadigan olinadigan soliq to‘lovchilar uchun tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami daromad miqdori chegarasini BHMning 5 ming barobari darajasida belgilashni taklif etamiz.

Soliq hisobotlarini topshirishda hozirga qadar ba’zi joylarda “sendan ugina, mendan bugina” qabiladigai holatlar uchrab turibdi. Hisobot davri kelganda tadbirkorlarning yuragi bezillaydi. Shuning uchun biz bu illatlarga qarshi keskin kurashib, soliq hisobotida inson omili ta’sirini keskin kamaytirish choralarini ko‘ramiz.

VA'DA EMAS, NATIJA Ertaga emas, bugun

Partiyamiz Soliq kodeksi va boshqa me’voriy hujjatlardagi tadbirkorlik subyektinging QQS to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishi uchun ayrim talablarni bekor qilishni taklif etadi. Xususan, onlayn nazorat kassa mashinalarining dasturiy ta’minoti davlat tomonidan yuritilishini joriy etish orqali tadbirkorlar ulardan foydalanganini uchun undiriladigan har oylik to‘lovni maqbullashtirish tarafdorimiz. Bu soliq idoralari va tadbirkor o‘rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, odamlarimizda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, kichik bo‘lsa-da, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan holda moddiy farovonlikka erishishga ko‘maklashish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Ana shunday taraqqiyparvar islohotlarga urg‘u berilayotgan bir paytda ayrim siyosiy partiyalar, aniqrog‘i, Xalq demokratik partiyasi o‘zining asoslanmagan qarashlari va g‘oyalari bilan omma e’tiborini o‘ziga qaratishga urinmoqda. Masalan, ular daromad va ularning manbalaridan qat’i nazar, boylikning haddan tashqari konsentratsiyasiga adolatli soliq solish tizimini joriy qilish tashabbusi bilan chiqmoqda.

XDPning mazkur taklifi yashirin iqtisodiyot rivojlanishiga, korrupsiyaviy holatlarga, noqonuniy yo‘llar orqali pullarni yuvish avj olishiga sabab bo‘lishini anglash uchun unchalik chuqur bilim shart emas. Bunday jiddiy masalalarda yuzaki yondashib bo‘lmaydi. Mavzuning davomiy sifatida yana bir partiyaning soliq siyosati borasida ilgari surayotgan taklifi o‘rinsiz ekanini ta’kidlash joiz.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi “solliqlar va boshqa qayta taqsimlash vositalari orqali aholi daromadlarini tenglashtirish siyosatini yuritish” g‘oyasini ilgari surmoqda. Ochig‘ini

aytganda, tahlil qilmasdan qabul qilingan tashabbus fuqarolar va tadbirkorlarimizning ishtiyoqini so‘ndiradi. “Qancha ko‘p mehnat qilsam ham, harakat qilsam ham imkoniyatlarim kengaymas ekan”, degan umidsizlikni paydo qiladi. Zotan, ko‘p daromad olgan shaxslarni ko‘p daromad olgani uchun soliqlar orqali “jazolash” yoki jamiyatdagi ijtimoiy yukni ularning zimmasiga yuklash adolatsizlikdir.

Sanoat tarmoqlarini rivojlantiramiz

Yurtimizda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Endi biz sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravar, mehnat unumdorligini ikki baravar oshirish, 115 milliard dollarlik yirik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha zarur choralarni belgilaymiz. Sanoatda tannarxni kamaytirish siyosatini yuritamiz.

Mamlakatda sanoat qancha taraqqiy etsa, ish o‘rni ko‘payadi, aholining oilaviy byudjeti mustahkamlanadi, kambag‘allik chekinadi. Buning uchun bizda imkoniyatlar juda keng va undan unumli foydalanish uchun barcha kuch va salohiyatni ishga solishga kirishamiz. Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratish uchun astoydil ish olib boramiz.

5 MAQSAD 500 VAZIFA

Kichik sanoat zonalarida investitsiya majburiyatini bajargan tadbirkorlarimizga yer uchastkalarini xususiy lashtirishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratamiz. Salohiyatli tadbirkorlarga kichik va yoshlar sanoat zonalaridan 10 yilgacha bo‘lib to‘lash imtiyozini bilan yer ajratilishi tarafdorimiz.

Partiyamizning maqsadlaridan biri O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish hajmini yiliga 1 million donaga yetkazishdir.

Bu tashabbus elektrotimiz talablariga javob beradi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mamlakatimizni mintaqaviy “to‘qimachilik xabi”ga aylantirish maqsadida to‘qimachilik

5 MAQSAD 500 VAZIFA

degradatsiya va global isish kabi omillar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Ayniqsa, suv tanqisligi, qurg‘ochlik, iqlim o‘zgarishlari fermer va dehqonlarni qiyin ahvolga solib qo‘ymoqda. O‘ZLiDeP yangi Saylovoldi dasturida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish yo‘lidagi islohotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan olinadigan o‘rtacha daromadni oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Shu bois, 1 gektar yerdan olinadigan daromadni 5 ming dollarga yetkazishni ta’minlash muhim vazifamizdir. Foydalanilmayotgan maydonlarni o‘zlashtirish hisobiga 300 ming gektarda intensiv bog‘ va uzumzorlar barpo etsak, bu ham yaxshigina daromad keltiradi. Mahsulotni qayta ishlash va eksportga chiqarish imkoniyati yanada oshadi. Bunda magsulotlarni yig‘iyati, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichlarini qamrab olgan agrologistika markazlari juda muhim. Shuni e’tiborga olgan holda, 2,5 million

Turizm — mamlakat iqtisodiyotining drayveri

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadli bo‘yicha dunyoda yuqori o‘rinlarda turadi. Yana bir muhim jihati, kam xarajat bilan ko‘p ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Shu bois, partiyaning Saylovoldi dasturida ham iqtisodiyotimizni rivojlantirishning asosiy va istiqbolli tayanch nuqtasidan biri sifatida turizm sohasini tizimli rivojlantirish taklif etilmoqda.

Bu borada vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ‘ib qilish, erishilgan yutuqlar, xalqaro e’tirof va sovrinlar, yaratilayotgan qulay sharoit va imkoniyatlar xorijiy sayyohlarni, xalqaro tashkilotlarni bee’tibor qoldirayotgani yo‘q.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 2023-yili Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog‘i “Best Tourism Village 2023 Awards” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib bo‘ldi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz “Lonely Planet” xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024-yil uchun “O‘zbekiston — eng yaxshi sayohat maskani” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

Ishonchimiz komilki, mazkur ijobiy natija va e’tiroflar xorijda hech kimni befarq qoldirmasdan, mamlakatimizga sayyohlar oqimi va valyuta tushumlarini ko‘paytirish, pirovardida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning mavjud turizm salohiyati bundan-da yuqori iqtisodiy rivojlanish potentsialiga ega. Ammo bizda hali turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalana olinayotgani yo‘q. Kelayotgan sayyohlarga qulay shart-sharoit yaratishda hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Bu esa tadbirkorlardan sohani rivojlantirish bo‘yicha tizimli izlanish va oqilona yechimlar ishlab chiqishni talab etadi.

Yangi O‘zbekistonda sayyohlik industriyasi kengayishi uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida hududlarning turizm master-rejalarini ishlab chiqamiz. Agroturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida “Agroturizm — 2030” strategiyasini ishlab chiqishni muhim deb hisoblaymiz. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orolbo‘yida ekoturizmi rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinishiga ko‘maklashamiz.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz.

Bu borada davlat-xususiy sherikligi asosida transport, yo‘l qurilishi, suv xo‘jaligi kabi ustuvor sohalarga 14 milliard dollar investitsiya jalb etishga har tomonlama ko‘maklashiladi.

Yirik aeroportlar modernizatsiya qilinishi, xususiy aviakompaniyalar soni yanada ko‘payishi bo‘yicha choralar ko‘riladi.

Internet infratuzilmasi ham alohida e’tiborimizda bo‘ladi. Qishloq va ovullarni internet bilan to‘liq qamrab olib, uning tezligini 10 karra oshiramiz.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaymiz va agrar sohani rivojlantiramiz

Bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan ulkan masalalardan biri oziq-ovqat xavfsizligiga erishishdir. Bu masalaning dolzarblig shundaki, butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham suv tanqisligi, ekologik beqarorlik, cho‘llanish,

tonna quvvatga ega 100 ta agrologistika markazini tashkil etish bo‘yicha ham ish olib boramiz. Partiyamiz organik mahsulot yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklariga soliq imtiyozlari joriy etish taklifini ilgari surmoqda. Bu har jihatdan to‘g‘ri va adolatli bo‘ladi.

Tadbirkorlar hayotini kuzatib shu jihatga e’tibor qaratdikki, ular uchun “Agrosanoat klasterlari to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud va biz bu borada qat’iy ish olib boramiz.

Dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratamiz.

Farmer va dehqonlarga imtiyozli kreditlar ajratish, ularni qaytarish muddatlarini mavsumiyligidan kelib chiqqan holda belgilashni taklif qilamiz.

Biz qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishlariga mos holda rivojlantirish, tuproq va yaylovlar degradatsiyasining oldini olish yuzasidan milliy dastur qabul qilinishi tarafdorimiz. Xorijdan serhosil, kasalliklarga chidamli o‘simlik urug‘lari, ko‘chatlari olib kiritilishi yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash choralarini ko‘ramiz.

Sohaga 15 milliard dollar investitsiya jalb etishni ta’minlash tashabbusini amalga oshirishga ko‘maklashamiz.

Farmer va dehqonlarning huquqlarini himoya qilishda O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining imkoniyatlarini kengaytirishni taklif etamiz.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini haqiqiy bozor aktiviga aylantirish, ijara huquqini bo‘lib sotish, undan garov predmeti sifatida foydalanish uchun qonuniy bazani yanada takomillashtirish taklifi ilgari surilmoqda.

Yer masalasida har qanday qaror qabul qilishdan oldin “yetti o‘lchab bir kesish” zarur. Chunki yer — cheklangan resurs. Uning har bir qarichidan unumli va samarali foydalanish bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega. Bunga bog‘liq masalalarga yuzaki yondashish ortiqcha xatarlar keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturidagi bir taklif shu jihatdan yetarli darajada asoslanmaganini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, “ekin maydoniga aylantirish imkoniyati bo‘lmagan cho‘l hududlardagi samarasiz yerlarni o‘zlashtirish taqilqlanishi kerak”. Bu yondashuv zamonaviy iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarni inkor qiladi.

Aslida, cho‘l hududlarini o‘zlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bugungi kunda tobora o‘sib bormoqda. Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda cho‘l hududlarida quyosh elektr stansiyalari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan texnologiyalar asosida agrofirmalar yaratish bo‘yicha yuqori samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. Samarasiz deb hisoblangan yerlar ham zamonaviy yondashuvlar orqali iqtisodiy manfaat keltirishi mumkin.

Shu sababli Ekologik partiyaning ushbu taklifiga yerdan foydalanish masalasida taqilqlarni emas, innovation yechimlarni joriy qilish ko‘proq samara beradi deb munosabat bildiramiz.

Eksport salohiyatini yanada yuksaltiramiz

Bugun O‘zbekiston investorlar erkin va to‘laqonli faoliyat yuritayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanilmoqda. Shu bois, yurtimizga xorijiy investitsiya kirishi oshib bormoqda. Tadbirkorlarimiz tomonidan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ham muttasil o‘sib, jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Partiyamiz davlatimiz tomonidan bu yo‘nalishda qilinayotgan sa’y-harakatlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda uni tizimli asosda davom ettirib, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va eksport geografiyasini kengaytirishda faol ish olib boradi.

50 ta nufuzli xorijiy brend bilan maxsus eksport zonalari tashkil qilinishi, eksportchi tadbirkorlar uchun kredit foiz stavkalari kamaytirilishi borasida ish olib boriladi. Har bir tumanda kamida mingta ish o‘rni yaratadigan 2 tadan yangi sanoat zonasini tashkil qilindi, IT xizmatlar eksporti 5 milliard dollarga olib chiqiladi.

Raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan korxonalarning eksport faoliyatini jadallashtirish diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Partiyamiz yangi O‘zbekistonning porloq kelajagi, yurtimiz taraqqiyoti, davlatimiz rahbari boshchiligidagi islohotlarni va xalqimizning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida qat’iy bel bog‘lagan siyosiy kuch!

G‘oya va qarashlarimiz tadbirkorlar, ishbilarmonlar, butun xalqimiz sa’y-harakatlari bilan hamohang va ularni qo‘llab-quvvatlashga doim tayyormiz!

Abdullo ASLONOV,

O‘ZLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari,

Nodir JUMAYEV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

SAYLOV - 2024

SAYLOVOLDI TASHVIQOTI

QAY TARTIBDA AMALGA OSHIRILADI?

Joriy yil 22-sentabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti boshlandi. Mazkur jarayon saylov kampaniyasining eng muhim bosqichi bo'lib, saylovchilarga siyosiy partiyalar va nomzodlar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.



Abdulaziz RASULEV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Saylovoldi tashviqoti o'zi nima va kim tomonidan olib boriladi?

Saylov kodeksiga muvofiq, saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir. Mazkur faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsad — saylovchilarni ular uchun ovoz berishga chorlash. Binobarin, saylovoldi tashviqotida siyosiy partiya va nomzodlar saylovda g'alaba qozonish uchun faol harakat olib boradi.

Saylovoldi tashviqoti nafaqat nomzodlar tomonidan, balki:

— deputatlikka nomzod deputat etib saylanishi uchun uning nomidan ishonchli vakillar;

— partiya ro'yxati bo'yicha nomzodlar saylanishi uchun siyosiy partiyalar va ularning vakillari tomonidan olib borilishi mumkin.

Ayrim toifadagi shaxslar (davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linalmar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sudyalari, saylov komissiyalari a'zolari, diniy tashkilotlar professional xizmatchilari)ning saylovoldi tashviqoti olib borishi taqiqlanadi.

Qachon o'tkaziladi?

Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlarni va Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatini belgilangan tartibda ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunningertasidan e'tiboran boshlanadi va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin tugatiladi. Nomzodlar va partiya ro'yxatini ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganda tugallanadi. Demak, ro'yxatga olish yakunlanganidan so'ng tashviqot tadbirlari boshlanadi.

Saylov qonunchiligiga ko'ra, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur amaliyot xalqaro tajribada "sukunat" kuni deb ataladi. Ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasida saylovdan bir (Fransiya, Hindiston, Italiya, Qozog'iston, Vengriya, Xorvatiya) yoki ikki kun (Argentina, Misr,

Serbiya), ayrim davlatlarda uch kun (Avstraliya, Indoneziya, Chexiya) oldin saylovoldi tashviqoti o'tkazilmaydi. Biroq binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari (jumladan, saylov kunidan ikki kun oldin) joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallarini saylov kuni va ovoz berishdan bir kun oldin olib qo'yilishi majburiy hisoblanmaydi. "Sukunat" kunidan ko'zlangan maqsad saylovchilarning mustaqil tanlovini ta'minlash, chetdan aralashuv va bosimning oldini olish hisoblanadi.

Tashviqot qanday shakl va usullarda olib borilishi mumkin?

Nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalar va ularning vakillari saylovoldi tashviqotini qonunda belgilangan shakl va usullarda amalga oshirish huquqiga ega.

Deputatlikka nomzodlarga va siyosiy partiyalarga o'zining kelgusidagi faoliyati dasturi, siyosiy partiyaning dasturi va saylovoldi platformasini tashviqot qilish huquqi beriladi. Deputatlikka nomzodlar yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda saylovoldi tashviqotida siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborot yoki deputatlikka nomzod va siyosiy partiya to'g'risidagi axborot tarqatilishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti OAV, Internet jahon axborot tarmog'i orqali, bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chop etish hamda tarqatish, saylovchilar bilan bevosita uchrashuvlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Aytib o'tish lozimki, deputatlikka nomzodlarning tarjimayi holi va ularning saylovoldi dasturlari, shuningdek, partiya ro'yxati va siyosiy partiyalarning dasturlari to'g'risidagi tegishincha Markaziy saylov komissiyasi va boshqa saylov komissiyalarining axborot materiallari (plakatlari) saylovoldi tashviqoti materiallari hisoblanmaydi.

Saylovoldi tashviqotini olib borishning turlari, shakl va usullarining mazmun-mohiyati nomzodlar va siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil belgilanadi.

Umuman olganda, saylovoldi tashviqoti davrida uni olib borishning qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday turlari, shakl va usullaridan ham foydalanilishi mumkin.

Unda nimalarga yo'l qo'yilmaydi?

Saylovoldi tashviqotini saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek, pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi.

Tashviqot davlat suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilmagan bo'lishi, xalqning salomatligi hamda ma'naviyatiga tahdid solmasligi, urush, milliy nafrat, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilmasligi, konstitutsiyaviy tuzumning zo'rlik ishlatib o'zgartirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari hamda erkinliklarini cheklavchi harakatlarga da'vat qilmasligi kerak.

Shuningdek, saylov jarayonida noto'g'ri axborotni tarqatish, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini buzish, nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan har qanday ma'lumotlarni, shuningdek, yolg'on (shu jumladan, chalg'itadigan yoki adashtirib yuboradigan darajadagi), boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazuvchi har qanday saylovoldi tashviqoti materiallarini, shu jumladan, sun'iy intellekt



texnologiyalaridan foydalangan holda tayyorlash va tarqatish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeyidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiya yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Saylov komissiyalari xolis bo'lishini inobatga olgan holda, ularning a'zolari partiya ramzlari tushirilgan kiyim kiyishi, taqinchoq taqishi va boshqa belgilardan foydalanishi mumkin emas.

Zarur shart-sharoitlar qanday yaratiladi?

Saylovoldi tashviqoti doirasida tegishli shart-sharoitlar yaratilishi qonunchilikda belgilangan. Deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqotini olib borish uchun mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlarni samarali tashkil etish maqsadida nomzod o'zi ro'yxatga olingan saylov okrugi joylashgan hududda barcha turdagi davlat yo'lovchi transportida bepul yurish huquqiga ega (bundan shahar yo'lovchi transporti, taksi va boshqa transport turlarining buyurtma qilinadigan reyslari mustasno). Saylov okrugidan tashqarida yashovchi deputatlikka nomzod saylov okrugiga borish va yashash joyiga qaytish uchun ularga tekina yurish huquqidan foydalanadi. Mazkur huquqlarni ta'minlashga doir zarur choralar transport sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan ko'riladi.

Nomzodlar va siyosiy partiyalarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish mustaqil amalga oshirilib, buning uchun saylovchilar bilan uchrashuvlarni o'tkazish joyi va vaqti haqida tegishli hududiy, tuman, shahar yoki uchastka saylov komissiyasiga ma'lum qilib, tuman (shahar) hokimliklarini kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilishning o'zi yetarli. Ya'ni mazkur tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi.

Uchrashuvlarni tashkil etishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'maklashishi lozim. Buning uchun mazkur davlat organlari, idora va tashkilotlar uchrashuvlar o'tkazish uchun jihozlangan xonalarni bepul ajratishi, zarur ma'lumot va axborot materiallarini olishda yordam ko'rsatishi shart.

Tenglik qanday ta'minlanadi?

Deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini olib borish borasida teng huquqlarga egaligi kafolatlangan.

Saylovoldi tashviqotini olib borish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan budget mablag'larining hajmi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan teng ulushlarda

belgilanadi va siyosiy partiyaning tegishli hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Saylov kodeksiga muvofiq, tashviqot olib borilayotganda davlat OAVlaridan foydalanishda hajmiga ko'ra bir xil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi.

OAV saylovoldi tashviqoti davrida bepul ajratiladigan efir vaqti va nashr maydoni doirasida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarga zarur shart-sharoitlar yaratib, yangiliklar dasturlari va boshqa axborot materiallarida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tadbirlarini yoritishda tenglik prinsipiga rioya qilishi kerak. Bu turdagi materiallar saylovoldi tashviqoti materiallari ekanligi OAVlarda qayd etib boriladi.

OAV tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha uchun teng va bir xil bo'lishi kerak.

Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 20-sentabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun saylovoldi tashviqoti maqsadida OAVdan bepul foydalanish tartibi, hajmi va vaqti belgilandi. Xususan, mazkur qaror bilan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining markaziy telekanallari, radiokanallari, hududiy teleradiokanallari hamda ularda bepul ajratiladigan efir vaqti hajmi, markaziy nashrlar ("Yangi Uzbekiston", "Pravda Vostoka", "Xalq so'zi", "Narodnoe slovo", "Ovozni to'g'ri", "Hurly jol" gazetari) hamda mahalliy gazetalarda bepul ajratiladigan nashr maydoni hajmi belgilandi. Mahalliy kengashlarga saylovoldi OAVdan teng foydalanish masalasi tegishli saylov komissiyalari tomonidan hal etiladi.

Talablarni buzganlik uchun qanday javobgarlik choralari bor?

Amaldagi qonunchilikda saylovoldi tashviqoti talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Jumladan:

— Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining qarorlari (shu jumladan, bepul va bir xil efir vaqti va nashr maydoni haqidagi qarorlari)ni ijro etmaslik;

— nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini (xususan, saylovoldi tashviqoti davrida ham) buzish;

— saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibini buzish;

— saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish maqsadida nomzod, siyosiy partiya to'g'risida ataylab yolg'on ma'lumotlarni e'lon qilish yoki boshqa usullar orqali tarqatish;

— binolarga, inshootlarga yoki boshqa joylarga joylashtirilgan axborot, tashviqot materiallarini saylovga tayyorgarlik ko'rish va saylov o'tkazish jarayonida qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish;

— jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, shuningdek, saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etish (e'lon qilish) tartibini buzish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Fuqarolarning deputat saylash yoki saylanish, saylovoldi targ'iboti olib borish huquqlarini, deputatlikka nomzod shaxsning ishonchli vakillari o'z vakolatlarini erkin amalga oshirishlariga zo'rlik ishlatishi, e'rqitish, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan to'sqinlik qilish esa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, saylovoldi tashviqoti muhim siyosiy jarayon, amaldagi qonunchilik mazkur tadbirlarning har tomonlama samarali amalga oshirilishini, nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

STATISTIKADA YANGI TEKNOLOGIYA VA MA'LUMOTLAR MANBALARI

Forum oldidan

Usmon ABDURASULOV, Statistika agentligi axborot xizmati rahbari

Joriy yil 2-4-oktabr kunlari poytaxtimizda "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining II xalqaro statistika forumi: statistikada yangi texnologiya va ma'lumotlar manbalari" mavzusida navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, MDH ijroiya qo'mitasi va davlatlararo Statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda tashkil etiladigan forumda 150 dan ziyod qatnashchi, jumladan, BMTning Statistika bo'limi direktori, BMT YIK Statistika bo'limi direktori hamda 20 ga yaqin xorijiy davlatlarning statistika idoralari rahbarlari va boshqa xalqaro tashkilotlar ekspertlari ishtirok etadi.

Forum foydalanuvchilarning statistik ma'lumotlarga talabi va ehtiyojini ta'minlash yo'lidagi statistika idoralari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, anjuman doirasida statistik ma'lumotlarni tayyorlovchilar va ulardan foydalanuvchilar o'rtasida muloqotni yaxshilash hamda ochiqlik, dolzarblilik va shaffoqlik tamoyillari asosida statistik ma'lumotlarni e'lon qilish kabi masalalar muhokama qilinadi.

Ma'lumotlarni boshqarish, axborot

resurslarining milliy darajada integratsiyasi yo'nalishida Rossiya, Belarus, Armaniston va Tojikiston davlatlari tajribasi taqdimoti o'tkaziladi. Bu borada O'zbekistondagi ishlar to'g'risida Raqamli texnologiyalar vazirligi va Statistika agentligi mutaxassislari ham taqdimot qilib, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ulardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, respondentlarga hisobot yukini kamaytirish yuzasidan axborot beradi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatishning yangi texnologiyalari yo'nalishida Belarus, Serbiya hamda o'zbekistonlik mutaxassislar, shuningdek, Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasining Statistika departamenti, MDH Statistika qo'mitasining Axborot statistika resurslari va texnologiyalari boshqarmasi, Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlarni boshqarish bo'limi vakillari va boshqa xalqaro ekspertlar o'z tajribalari bo'yicha taqdimotlar qiladi. Sessiya davomida statistik

ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatishning zamonaviy tendensiyalari muhokama qilinadi. Jumladan, ekspertlar geoaxborot tizimlarini joriy etish, Business Intelligence (BI) va ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish, sifat modellari (GSBPM, GSIM, GAMSO, NQAF), metama'lumotlar almashishning xalqaro standartlari (SDMX), smart ma'lumotlar — Findability, Accessibility, Interoperability, Reusability (FAIR — ma'lumotlar) tamoyillariga mos keladigan ochiq bog'langan ma'lumotlar bo'yicha batafsil axborot beradi.

Katta va ma'muriy ma'lumotlar yo'nalishida O'zbekiston, Qozog'iston, Mo'g'uliston, Rossiya, Ozarbayjon va Qirg'iz Respublikasi vakillari taqdimoti, rasmiy statistikani shakllantirish va undan foydalanish sohasidagi tajribalar ko'rib chiqiladi. Statistik ma'lumotlardan foydalanishning huquqi va tashkiliy asoslarini yaratish, yig'ish va ayirboshlash texnologiyalarini samarali qo'llash borasida tajriba almashiladi. Shuningdek, aholini ro'yxatga olishning 2030 raundiga tayyorgarlik ko'rish hamda uni registr va boshqa ma'lumotlar manbalari asosida o'tkazish kabilar muhokama qilinadi.

Raqamli texnologiyalarni statistika sohasiga integratsiya qilishdan asosiy maqsad yuqori sifatli statistik ma'lumotlarning barcha foydalanuvchilar uchun oson va tushunarli bo'ladigan ekotizimini yaratishdir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan statistik ma'lumotlarni to'plash maqsadida 20 ga yaqin vazirlik va idoralarning 30 dan ortiq ma'muriy ma'lumotlar bazasi integratsiya qilindi. Natijada foydalanuvchilarga ishonchli statistik ma'lumotlarni taqdim etish hamda mamlakatdagi ijtimoiiy-iqtisodiy holat bo'yicha 100 dan ortiq turdagi muhim statistik ko'rsatkichlarni onlayn yangilab borish va e'lon qilish, statistik-tahliliy ma'lumotlarni izlash vaqtini tejash imkoniyati yaratildi.

Statistika agentligi mutaxassislari erishilgan ijobiy natijalar tahliliga ham alohida to'xtalib, tajribasi bilan o'rtoqlashadi.

2023-yilda xalqaro tashkilotlarning 49 ta savolnomasi, jumladan, BMT Statistika bo'limining 10 ta, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining 5 ta, UNECKO statistika institutining 9 ta, Xalqaro mehnat tashkilotining 2 ta, Xalqaro elektroaloqa ittifoqining 2 ta va boshqa xalqaro tashkilotlarning 14 ta savolnomasi to'ldirilib, o'z vaqtida taqdim etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida 195 mamlakat orasida 70 ball bilan 30-o'ringa ko'tarilib, Markaziy Osiyoda 1-o'rinni saqlab qolmoqda. BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i va xalqaro ekspertlar tomonidan e'lon qilingan BRM reytingida 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o'rinni egallagan, Open Data Watch tashkilotining so'nggi hisobotida "Ochiq gender ma'lumotlari indeksi"da 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 mamlakat orasidan joy olgan, BMT Statistika bo'limining rasmiy veb-sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha eng ilg'or

tajribaga ega 87 davlat qatoriga kiritilgani ham diqqatga sazovor.

Bugun sun'iy intellekt xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish mumkin bo'lgan ko'plab istiqbolli yo'nalishlarni taklif qilmoqda. Uning statistikada qo'llanishi va jarayonlarni avtomatlashtirish yangi turdagi ma'lumotlardan foydalanish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda ayni muddad.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hajmi ortishi bilan kibernetika xavfi ham ko'paymoqda. Forumda axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiyligni ta'minlash borasida zamonaviy standartlar va ularning qo'llanishi muhokama qilinadi.

Statistika sohasida mutaxassislar malakasini oshirish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, MDH davlatlarida professional statistika hamjamiyatini mustahkamlashga qaratilgan ijohiyalar va ularning istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Forum doirasida Statistika idoralari rahbarlari, MDH Statistika qo'mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda ekspertlari uchrashuvlari, MDHga a'zo davlatlar statistika xizmatlari rahbarlari kengashining 70-yig'ilishi o'tkaziladi. Ko'plab dolzarb masalalar muhokama qilinib, statistika sohasida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, ma'lumotlar samaradorligi bo'yicha kelishuvlar amalga oshiriladi.

Yig'ilish natijalariga ko'ra, xalqaro va milliy statistika tizimlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha kelgusidagi rejalar tasdiqlanadi.

Mazkur forum MDH ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "MDHda statistikani rivojlantirish" dasturi doirasida o'tkazib kelinmoqda. Dastlabki I xalqaro statistika forumi 2023-yil 12-14-sentabr kunlari Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan edi.

1-oktabr –

O‘qituvchi va
murabbiylar kuni

E‘TIROF, RAG‘BAT VA IMKONIYATLAR

PEDAGOGLARNI O‘Z USTIDA ISHLASHGA RUHLANTIRMOQDA

Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Yig‘ilishda mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni seleksiya yo‘li bilan tanlab olish bo‘yicha ilgari bo‘lmagan yangi tizim yo‘lga qo‘yilgani ta‘kidlandi. Natijada bu yilning o‘zida xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz 122 ta medalni qo‘lga kiritdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta‘limga qamrab olish darajasi so‘nggi yetti yilda 4 karra oshdi. Bu yil 310 ming o‘g‘il-qizimiz oliygohlar talabasi bo‘ldi. Ana shu yoshlarning qariyb yarmi qizlardir. Bunday natija ilgari hech qachon bo‘lmagan.

Boshlanishi 1-betda

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor o‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta‘lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritildi. Bu esa davlat miqyosida pedagoglar mehnatining ahamiyati va e‘tirof etilishi, ta‘lim tizimini rivojlantirish davlatning asosiy vazifalari qatorida ekanini anglatadi. O‘qituvchilar millat kelajagini shakllantiruvchi yetakchilar hisoblanadi, ular bilim berish bilan birga, yoshlarning fikri, dunyoqarashini o‘zgartirib, millat xarakteriga ta‘sir ko‘rsatish kuchiga ega. Millat xarakteri esa iqtisodiyot poydevoridir. Intiluvchan, yaratuvchan, yangiliklarga tashna, adolatparvar, mehnatkash, haqiqatgo‘y xalqqa ega davlat boy va osoyishta bo‘ladi.

Mana shunday xalqni tarbiyalovchi ustozlar maqomining Konstitutsiyada belgilanishi professor-o‘qituvchilarni o‘z kasbiy vazifalaridan tashqari ishlarga jalb qilinishdan ozod etdi, ularning bor bilim, kuch va g‘ayratini yoshlarga ta‘lim-tarbiyaga berishga yo‘naltirishga imkoniyat yaratadi. O‘qish boshlanishi bilan talabalarni auditoriyalarga emas, paxta dalalariga olib chiqishga majbur bo‘lgan pedagoglar yangi O‘zbekistonda qadr topdi. Endi o‘qituvchilar uchun o‘z ustida ishlashga, tadqiqot ishlarni olib borishga, ilmiy loyihalar bilan shug‘ullanishga imkoniyat yaratildi. Xorijda tajriba o‘rtirish, amaliyot o‘tash, xalqaro konferensiyalar, forum va seminarlarda ishtirok etib, bilimni oshirish va o‘z bilimi bilan o‘linish bugungi professor-o‘qituvchilarning uchun oddiy holat, ish faoliyatining bir qismiga aylandi.

Prezidentimiz bu haqda ta‘lim-tarbiya sohasi vakillari bilan kuni kecha bo‘lib o‘tgan muloqotida ta‘kidladi.

“Yangilangan Konstitutsiyamizda dunyodagi mo‘tabar shaxs — o‘qituvchi maqomini alohida mustahkamlash, bu kasbni jamiyatdagi eng obro‘li ishga aylantirish mening necha yillik orzum, kerak bo‘lsa, armonim edi. Chunki o‘zim ham ko‘p yillar shu sohada ishlaganman. O‘qituvchi mehnati qanchalik og‘ir va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman.

Afsuski, ana shunday sharaflı va o‘ljanoib kasb egalari biz yaqin o‘tmishda yetarlıcha hurmat va e‘tibor qaratolmadı.

Sir emas, qaysi sohaga qo‘shimcha ishchi kuchi kerak bo‘lsa, birinchi navbatda, o‘qituvchi-pedagoglar jalb etiladigan bo‘lib qolgan edi.

Biz mamlakatimizda yangi islohotlarni boshlagan birinchi kunlardan e‘tiboran ana shu og‘irliq masalani hal etishga — o‘qituvchilarni, bolalar va ayollarni majburiy mehnatdan xalos qilishga kirishdik.

Qat‘iy iroda va intilish bilan bu noxush holatlar bugun tarixga aylandi.

Mana, bu yil “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildik. Konstitutsiyamizda belgilangan qoida endi ana shu qonun asosida ishlay boshlaydi.

Kimki o‘qituvchiga bosim o‘tkazib, uning kasb faoliyatiga daxli bo‘lmagan ishlarga, turli majlislariga jalb etmoqchi bo‘lsa, ana shu qonun asosida javobgarlikka tortiladi”, dedi davlatimiz rahbari muloqotda.

So‘nggi olti yilda oliy ta‘lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 10 ming 726 professor-o‘qituvchi xorijiy oliy ta‘lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o‘tash uchun yuborildi. 2024-yil yakuniga qadar yana 1544 professor-o‘qituvchi xorijda malaka oshirish va stajirovka uchun jo‘nab ketadi. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida 8101 nafar xorijlik

mutaxassis o‘quv jarayoniga jalb qilindi. Ta‘lim sifatini oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi. O‘qitish va amaliyot jarayoni muassasamligi ta‘minladi, zamonaviy laboratoriyalar olib kelindi.

Hozir zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Yoshlarning o‘zligini shakllantirishda, mustaqil shaxs bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Global o‘zgarishlar va texnologik rivojlanish davrida o‘qituvchilar ko‘plab funksiyalarni bajaradi: o‘quvchilarga zamonaviy muammolarga moslashishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, axborot bilan ishlashga va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bularning barchasi yuqori malakali o‘qituvchilardan doimiy kasbiy o‘sishni va o‘z ishiga ulkan fidoyilikni talab qiladi. Nafaqat farzandlarimiz, balki ertangi dunyo ham qanday bo‘lishini o‘qituvchilar belgilab beradi.



Pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ular faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilash maqsadida 2024-yil 1-fevralda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun pedagoglarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va huquqiy himoyasini oshirishda muhim bosqich bo‘ldi. Shuningdek, u o‘qituvchilarning har qanday majburiyatlarini tartibga soladi, ularning kasbiy faoliyati qo‘llab-quvvatlanishi va himoya qilinishini kafolatlaydi. Endi pedagoglar huquqiy himoya va huquqlarga ega bo‘lib, ijtimoiy va huquqiy muammolar haqida qayg‘umasdan o‘z ishini yaxshi bajarishi mumkin. Pedagoglarni o‘z kasbiy faoliyatlaridan tashqari ishlarga jalb qilish, belgilangan xat-hujjatlardan tashqari hisobot va ma‘lumotlar tuzish, o‘qituvchilarning ishini asossiz tekshirish, yozma rozilgisiz ish haqidan biror xizmat yoki tovar uchun pul ushlab qolish qonun bilan taqiqlandi.

Agar endi o‘qituvchilar ziyoli va ijtimoiy hayotga befarq bo‘lmagan aholi qatlami sifatida saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etishi, test sinovlarida auditoriya nazoratchisi vazifasini bajarishi, aholini ro‘yxatga olish ishlariida ko‘maklashishi, ta‘lim tashkilotlarini tekshirish hamda attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarida ekspert sifatida qatnashishiga etijoy paydo bo‘lsa, bunday ishlarni ular o‘z roziligiga ko‘ra, shartnomaga asosan, qo‘shimcha haq to‘lash evaziga amalga oshirishi belgilandi.



Mazkur qonunning qabul qilinishi o‘qituvchilik kasbining ahamiyatiga urg‘u berib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish bilan har kuni shug‘ullanayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish chora-tadbirlarini amalda nazarda tutadi. Qonun o‘qituvchilarning ijtimoiy mavqei va o‘z ishiga ishonchini sezilarli darajada mustahkamladi.

Qonunda pedagoglarni kasbiy faoliyatida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan. Bunga malaka oshirish va kasbiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish kiradi, bu esa ta‘lim tizimidagi doimiy o‘zgarishlar sharoitida, ayniqsa, muhimdir.

ta professional ta‘lim muassasasida ta‘lim sifatini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy ta‘lim muassasalari nafaqat o‘quv dasturlarini yangilashni, balki infratuzilmani modernizatsiya qilishni ham talab etmoqda. Ilg‘or texnologiyalar joriy etilishi, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun sharoitlar yaxshilanishi, zamonaviy ustaxona jihozlari bilan ta‘minlanishi — bularning barchasi o‘quvchilarda zarur ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Hududlarda 1 tadan jami 14 ta namunaviy texnikum tashkil etilishi professional ta‘lim tizimini mustahkamlashda muhim tashabbus bo‘lmoqda. Ushbu texnikumlar tajriba almashish, malaka oshirish va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish maydoniga aylanishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ular axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika kabi muhim tarmoqlar uchun mutaxassislar tayyorlashda katalitik rol o‘ynaydi. E‘tiborli jihati, ularlarda xalqaro standartlar asosida 70 ta davlatda tan olinadigan xalqaro dasturlar joriy etildi.

Malakali pedagog kadrlarsiz ta‘lim sifatini oshirish mumkin emas. Bunday o‘qituvchilar ulushini 50 foiz oshirish rejası kasbiy o‘sish va takomillashtirish muhimligini aks ettiradi. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarining 30 foizini qamrab oluvchi masofaviy va aralash ta‘lim shakllari joriy etilishi ularga o‘z kasbiy yo‘nalishlaridagi zamonaviy tendensiyalar va yangiliklar bilan doimo aloqada bo‘lgan holda bilimni yangilash imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika kabi ustuvor yo‘nalishlar uchun o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha davlat grantining 100 foizga yetkazilishi talaba yoshlarni ko‘proq jalb etish va ularning

strategiyasida alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, oliy ta‘lim bilan qamrovni kengaytirish barobarida oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish vazifasi oldimizga qo‘yilgan.

Zamonaviy dunyoda raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishda ta‘lim asosiy o‘rin tutadi va oliy ta‘limni qamrab olishni kengaytirish, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ta‘lim sohasidagi asosiy maqsadlardan biri yoshlarni oliy ta‘lim muassasalariga qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazishdir. Bu nafaqat talabalar sonini miqdoriy ko‘paytirish, balki oliy ta‘limni aholining barcha qatlamlari uchun qulay qilish uchun sharoit yaratishni ham nazarda tutadi. Ta‘lim dasturlarini kengaytirish, stipendiyalar, grantlar va boshqa qo‘llab-quvvatlash shakllari orqali universitetlarning kirish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ta‘lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash muhim jihatlardir.

Umumta‘lim maktablarini oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar bilan to‘liq ta‘minlash ham birdek muhim vazifa sanaladi. Maktabga sifati tayyorgarlik oliy o‘quv yurtlariga muvaffaqiyatli kirish uchun asosdir. Maktab o‘quvchilarida fundamental bilimlarni, zarur ko‘nikmalarni shakllantirishda oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar asosiy rol o‘ynaydi, bu esa ularning oliy ta‘lim va mehnat bozorida kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir qiladi.

Ta‘lim sifatini oshirish yo‘lidagi asosiy qadam oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazishdir. 30 ta universitetda akkreditatsiya o‘tkazilishi ta‘lim dasturlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlaydi va ularning nufuzini oshiradi. Bu talabalar va o‘qituvchilar uchun, jumladan, qo‘shma ta‘lim va ilmiy loyihalarda ishtirok etish orqali yangi imkoniyatlar ochadi.

Oliy ta‘lim qamrovini kengaytirish va uning sifatini oshirish muhim strategik maqsaddir. Xalqaro akkreditatsiya, ikki diplom tizimi, ilmiy salohiyat yuksalishi va xalqaro reytinglarga integratsiyalashuvi milliy universitetlarning jahon miqyosida raqobatbardoshligi oshishiga xizmat qilmoqda. Bu chora-tadbirlar zamonaviy dunyoning murakkab muammolarini hal etishga qodir, jamiyat va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Ta‘lim sifatini oshirish maqsadida 2024/2025-o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarning yillik o‘quv yuklamasini kamaytirish choralari ko‘rildi. Professor-o‘qituvchilarga yuklama 10 foiz qisqartirildi, bu o‘qituvchilarga darslarga tayyorgarlik

optimallashtiradi. Jumladan, tegishli fanlarni o‘qitish uchun o‘quv guruhları birlashtirilishi, sinf xonalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun akademik guruhlar soni optimallashtirilishi, amaliy bo‘lmagan fanlarni o‘qitish dasturlari soddalashtirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu o‘zgarishlar o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, ta‘lim resurslarini boshqarishni takomillashtirish va pedagoglar uchun yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni keng tanlana qilinishi, bu kunning dam olish kuni deb belgilanishi ham soha xodimlariga davlat e‘tiborining ustuvor ko‘rinishidir.

Pedagoglarga ehtirom kuni kecha Prezidentimizning ta‘lim-tarbiya sohasi vakillari bilan muloqot qilganida ham yaqqol ko‘rindi. Davlatimiz rahbari mamlakatimizning barcha ta‘lim-tarbiya xodimlarini O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etib, davlat mukofotlarini o‘z egalariga tantanali ravishda topshirdi.

Muloqotda bugungi kunda barcha soha va tarmoqlardagi islohotlar inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilayotgani ta‘kidlandi. Bosh maqsadi yangi zamon kishisini, yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalash bo‘lgan ta‘lim va tarbiya sohasi uchun bu vazifa alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor avlodni ustozlar tarbiyalashini, buning uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan himoya qilingan va yetarli ta‘minlangan bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi. “Bunday uyg‘unlikka erishish oson emas. Buning uchun katta-katta mablag‘lardan tashqari ulkan insoniy resurs, bilim va tajriba, kadrlar salohiyati, eng muhimi, o‘qituvchilarning vatanparvarlik fazilatları talab etiladi”, dedi davlatimiz rahbari.

Yig‘ilishda mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni seleksiya yo‘li bilan tanlab olish bo‘yicha ilgari bo‘lmagan yangi tizim yo‘lga qo‘yilgani ta‘kidlandi. Natijada bu yilning o‘zida xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz 122 ta medalni qo‘lga kiritdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta‘limga qamrab olish darajasi so‘nggi yetti yilda 4 karra oshdi. Bu yil 310 ming o‘g‘il-qizimiz oliygohlar talabasi bo‘ldi. Ana shu yoshlarning qariyb yarmi qizlardir. Bunday natija ilgari hech qachon bo‘lmagan.

Bu yil 14 ta maktabda pedagoglik kasbga qiziqqan 10-11-sinf o‘quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etildi. Kelgusi o‘quv yilidan yana 60 ta, jumladan, 10 ta ixtisoslashgan maktabda bu tajriba joriy qilinadi. Kelajakda ushu sinflarni tamomlagan o‘quvchilar shu yo‘nalishdagi oliygohlarga kirs, ularga 2-kursdan maktabga borib, kasbiy mahoratini oshirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Alohida qobiliyatga ega talabalarga dars o‘tganı uchun oylik ham to‘lanadi. Prezidentimiz pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi stipendiyani tashkil etish tashabbusini bildirdi.

Yig‘ilishda ko‘plab muhim va dolzarb masalalar muhokama qilindi. Pedagoglar faoliyatini jadallashtirish uchun bir qancha yangiliklar aytili. Pirovard maqsad mamlakatimizda ta‘lim tizimini sifat jihatidan ko‘tarish, yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni munosib tarbiyalash, o‘qituvchi va murabbiylar uchun sharoit yaratish, munosib mehnat sharoitlarini ta‘minlash va kasb nufuzini oshirish bo‘yicha katta islohotlarni amalga oshirmoqda. O‘qituvchilikni jamiyatdagi eng obro‘li kasblardan biriga aylantirish, martabasini oshirish, rag‘batlantirish orqali kun sayin o‘zgarib borayotgan global mehnat bozoriga mamlakatimiz kelajagini barpo etuvchi raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga erishamiz.



sifatli tayyorlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu nafaqat o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi, balki iqtisodiyotning imolabchan sohalarida mamlakatning kadrlar salohiyatini shakllantirishga ham ko‘maklashadi.

Oliy ta‘lim sohasidagi professor-o‘qituvchilarga ham “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida e‘tiborga olingan bo‘lib, 700



“OYLIGIM MING DOLLARDAN ZIYOD”

Odatdagidek erta uygʻongan muallimning maktabda anchagina ishlari borligi yodiga tushdi. Oʻzi dam olish kunlarini aytmaganda, doim bosh qashishga vaqti yoʻq. Mazkur kasbda ish boshlaganiga oʻn yildan ortiq vaqt boʻlibdiki, holat shu.



Bugun ham vaqtliroq harakat qilmasa, kechga qadar ayrim narsalarga ulgur olmay qolishi aniq. Hali tun yarmida charchoqdan oʻtirgan joyida uxlab qolaverib, oʻquvchilar daftarlarining yarmi tekshirilmay qolgandi. Shuni oxiriga yetkazish zarur. Soatiga qaradi. Hali tong otishiga bir oz bor. Shoshgancha chiroqni yoqib, yana stulga oʻtirtdi-da, chala qolgan ishini bitkazishga kirishdi. Oʻquvchilarining berilgan topshiriqni qanchalik bajarganini diqqat bilan tekshirib chiqarkan, koʻngli ancha xotirjam tortdi. Shogirdlarida ancha oʻzgarish bor. Lekin bu bilan yaxshi natijaga erishib boʻlmaydi, koʻproq tayyorgarlik koʻrish zarur. Axir ularning oldiga qoʻyilgan maqsad ham ancha yuqori.

Stoldagi oxirgi daftarni tekshirib boʻlarkan, allaqachon quyosh chiqib, soat millari sakkizga yaqinlashib qolgandi. Shoshgancha ayoli tayyorlab qoʻygan nonushtani yeb, maktabga yoʻl oldi. Qoʻlida kattagina portfel. Ichi daftar

va kitobga toʻla. U yoʻlda ham xayolan oʻylab borardi. Birinchi soat sakkizinchi sinfda darsi bor. Bugun ularga oʻtiladigan mavzu boʻyicha kecha tayyorlangan. Birinchi ishi uy vazifalarini nazoratdan oʻtkazish kerak. Shundan soʻng baholash zarur... Shu payt qoʻngʻiroq chaliniib, xayollarini toʻzgʻitib yubordi.

Har safar oʻquvchilar aynan Farhod muallimning dars oʻtishini intiqlik bilan kutadi. Bugun ham shunday boʻldi. Hali oʻqituvchi kelmasidanogʻ ilimga chanqoq yoshlar ustozni kutib turgandi. Buning oʻzgacha sababi bor, albatta. Koʻpchilik oʻylaganidek, kimyo fani unchalik qiyin emasligini, aksincha, eng osoni ekanini amalda koʻp bor isbotlagan. Ularning shu fanga mehrini oshirgan. Buning yana bir sababi — ustozning dars oʻtish uslubi boshqalarnikidan anchagina oʻzgacha. Darsni erkin oʻtib, imkon darajasida mavzuni oddiy amaliyotlar, hayotiy voqealar misolida tushuntirishga intiladi. Hech bir kishi savol berishga ikkilanmaydi. Har biriga quloq tutgan ustoz toki tushuncha hosil qilmaguncha qoʻymaydi. Shuning taʼsirida butun sinf kimyo faniga mehri boshqacha boʻlib shakllangan. Dars vaqti qanday oʻtib ketganini esa sezmay qolishadi.

Kunning ikkinchi yarmida koʻpchilik hamkasblari allaqachon uyiga ketayotgan bir paytda u qoʻshimcha mashgʻulot oʻtishga hozirlik koʻrayotgandi. Albatta, qoʻshimcha dars oluvchilar safi ham anchagina. Kamida toʻrtta guruh. Ayniqsa, shu yil maktabni bitiruvchilar orasida shifokor boʻlish istagidagilar anchagina. Shu bois, har bir guruhga alohida mavzularda mashgʻulot oʻtish lozim.

Maktab hovlisidagi daraxt tagiga oʻtirgʻich qoʻyib, bir oz hordiq chiqarishni maqsad qilgandi. Bu ham koʻpga bormadi. Muallimni shogirdlari



qoʻymadi. Kimdir avvalgi topshiriqdagi javoblarini koʻrsatishga shoshilsa, yana birov boshqa mavzuda oʻz fikrini tasdiqlatishga intilardi. Hovlida boshlangan mashgʻulotlar sinfxonaga koʻchdi. Soʻnggi darsini tugatganda quyosh allaqachon botib, atrofini tun pardasi qoplayotgandi.

Muallim kechki ovqatni tanovul qilgach, yana ishga kirishdi. Oilasidagilar ham bu odatga koʻnikib qolgan. Bunday paytda uni bezovta qilib boʻlmaydi. Ertangi darslarga hozirlik koʻrish kerak, oʻquvchilardan olingan nazorat ishlari tekshirish zarur. Xullas, televizor koʻrib,

yonboshlab yotishga sira vaqti yoʻq. U tun yarmiga borib boʻlsa-da, horib emas, aksincha, yelkasidan togʻ agʻdarilgandek yengil boʻlib yotishga chogʻlandi. Axir ertaga shogirdlari oldida yuzi shuvut boʻlmaydi. Bir soatlik darsda nimadir bera oladi. Olgan maoshini oqlaydi. Bu, albatta, maroqli dam olishga sabab boʻlishi aniq. Farhod Ashurov Dehqonobod tumanidagi 77-maktabda ish boshlaganiga oʻn yildan oshayotgan boʻlsa-da, tirishqoqligi, izlanuvchanligi tufayli yaxshigina natijalarga erishib qoʻydi. U aslida talabalik davridanoq

“Keyingi paytda oʻqituvchilar orasida eng koʻp maosh oluvchilari haqida gap ketganda, asosan, xorijiy til mutaxassislari tilga olinadi. Lekin aslida imtiyoz, imkoniyat boshqa fan muallimlari uchun ham bor. Bunga kimyo oʻqituvchisi Farhod Ashurov faoliyati yaqqol misol boʻladi. Faqatgina astoydil mehnat, doimiy izlanish va harakat kifoya.”

kimyo faniga qiziqishi yuqori boʻlgani bois, qator tanlovlarda ishtirok etib, iqtidorlilar safidan joy olgandi. Xususan, bir necha bor fan olimpiadalarning tuman, viloyat bosqichlarida qatnashib, faxrli oʻrinlarni qoʻlga kiritdi. Oliyohdagi ustozlarining ortidan ergashib, bir qancha ilmiy maqolalar chop ettirdi. Bu izlanishlarini maktabda ishga kirganidan soʻng ham toʻxtatgani yoʻq. Oʻquvchilarni kimyo faniga qiziqitira olgan holda ularni turli fan olimpiadalarga yetaklab chiqarmoqda. Hozirga qadar tuman va viloyat olimpiadalarga olib chiqqan shogirdlarini hisoblasak, kamida yuzdan oshib ketishi aniq.

Shu qatorda oʻzi ham har yili yutuqlarini yangilab borishdan charchamaydi. Jumladan, 2017-2018-oʻquv yilida “Yilning eng yaxshi oʻqituvchisi” koʻrik-tanlovida tuman va viloyat bosqichlarida eʼtirof etilib, respublika tanlovida birinchi oʻringa munosib koʻrildi. Oʻsha yili “Xalq taʼlimi aʼlochisi” koʻkrak nishoni, 2021-yilda “Shuhrat” medali hamda “Xalq taʼlimi fidoyisi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi. Uning noanʼanaviy dars oʻtib, yushlarning kimyo faniga qiziqishini oshirish uslubi mamlakatimizdagi umumtaʼlim maktablarida ommalashtirilgan.

Men shu kasbni tanlaganimdan faxrlanaman, — deydi Farhod Ashurov. — Oʻqituvchilikning oʻziga xos mashaqqatlari bor. Lekin sharaflari. Bir paytlar bu sohada, ayniqsa, erkaklar ishlashni umuman xohlamay qolgandi. Bunga yetarlicha sabablar boʻlgan. Birinchi navbatda, maosh kamligi, vaqtda berilmasligi koʻpchilikni maktabdan chiqib ketib, boshqa ish qilishga majbur etgan. Bugun esa barchasi boshqacha. Oyligimiz oʻz vaqtida berilmoqda. Bundan tashqari, oʻz ustida ishlagan muallim hozirgi kunda bemaol ming dollardan koʻp maosh olmoqda. Buning uchun faqatgina masʼuliyat bilan kasbga yondashsa boʻlgani. Gohida ayrim hamkasblarimning yetishmovchiliklar haqida noliq qilib qolgan quloqqa chalinadi. Aslida, bunga aybni boshqadan emas, oʻzidan izlashi lozim. Oʻqituvchilarga shunchalik



imkoniyat berilgan bir paytda nomiga ishga borib keluvchi boʻlmaslik kerak. Bizdan oʻquvchilar har kuni nimadir olishga harakat qiladi. Shunga yarasha biz ham tayyor holda maktab ostonasiga ularga nimadir berish uchun qadam tashlashimiz zarur. Baʼzida ayrimlar koʻp maosh olayotganiga shubha bilan qaraydi. Shunda ularga bir kun davomida men bilan birga vaqtingizni oʻtkazib koʻring, deya maslahat beraman. Bundan tashqari, mehnatlarim samarasi shogirdlarimning har yili erishayotgan yutuqlari zamirida namoyon boʻlayotganiga shubha yoʻq.

Darhaqiqat, yosh oʻqituvchining sohadagi yutuqlariyu shogirdlarining erishgan natijalarini sanab adogʻiga yetib boʻlmaydi. Xususan, 33 bitiruvchini kimyo fani boʻyicha tayyorlab, shu yilning oʻzida barchasining talabalikka tavsiya etilishiga hissa qoʻshdi. Quvonarlisi, ulardan 24 nafari tibbiyot oliyohigiga oʻqishga qabul qilingan, 16 nafari esa yuqori ball bilan test sinovlaridan oʻtib, grant asosida taʼlim olmoqda.

Keyingi paytda oʻqituvchilar orasida eng koʻp maosh oluvchilari haqida gap ketganda, asosan, xorijiy til mutaxassislari tilga olinadi. Lekin aslida imtiyoz, imkoniyat boshqa fan muallimlari uchun ham bor. Bunga kimyo oʻqituvchisi Farhod Ashurov faoliyati yaqqol misol boʻladi. Faqatgina astoydil mehnat, doimiy izlanish va harakat kifoya.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Zamondoshlarimiz

Sakkiz yil avval akademik litseyda oʻqirdim. Bir kuni “Eshidilaringmi, ertaga yozuvchi va olimi Sarigul Bahodirova litseyimizga mehmon boʻlib kelar ekan!” degan gap tarqaldi. Yozuvchining ijodiy faoliyati, ayniqsa, qoraqalpoq xarakteri, urf-odatleri aks etgan “Taqqir” trilogiyasi, “Urushdan soʻng”, “Ayollar”, “Toʻmaris va Kir” qissalari bilan tanish edim. Shuningdek, “Onamga xat” hikoyasi, xalq ogʻzaki ijodi, tarixdagi mashhur ayollar — Toʻmaris, Zarina, Aruxon, Aqsholpan, Jupar va Qumar ona haqidagi badiiy, ilmiy-publitsistik maqolalarini ham oʻqigandim. Shu bois, bu xabar ijodkorning mendek muxlisini juda xursand qilgan edi.

Sarigul opa oʻgʻillari bilan Toshkent shahrida yashadi. U har gal Nukusga kelganda onam mehmondorchilik qilqirib turardi.

Bir marta opa shogirdlari Ziyoda Bekbergenova (u hozir filologiya fanlari doktori, professor), Aqsungil Qalenderova bilan birga keldi. Biroz vaqt oʻtgach, toʻqson yoshni qarshilayotgan yana bir ayol ular safiga qoʻshildi. Keyin bilsam, u katta olim, qoraqalpogʻistonlik ayollar orasida birinchi boʻlib Moskvada filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasini yozqan tilshunos Raoʻiya aya Yesemuradova ekan!

Oʻshanda onam “Sanʼat, madaniyat haqidagi gaplarini eshitnglar, saboq boʻladi”, deb biz — opa-singillarni ularning yoniga oʻtqazib qoʻygandi. Biz, oʻsmir qizlar mehmonlarning shirin suhbatini eshitib, ijodiga maftun boʻlgan edik.



Uchrashuv boʻladigan kuni kechasi bilan oʻzim yoqtirgan Toʻmaris monologini qayta-qayta mashq qildim: “Tirikligingda koʻzing qonga toʻymagan edi. Oʻzim seni odam qoniga toʻydiryain!”.

Akademik litseydagi adabiy kechada ushbu monologni yoddan aytib turganimda zalda oʻquvchilarga qoʻshilib,

oʻqituvchilarimiz ham yigʻlab oʻtirganini koʻrdim.

Massagetlar malikasi Toʻmarisning yovuz podshoh Kir II boshini qonli meshga tiqqan joyini butun dunyo asrlar davomida yodida saqlab kelyapti. U ona boʻlgani bois, yakka-yu yagona oʻgʻli Siparangis zolim hukmdor qoʻlida jon bergani uchun urushni laʼnatlab, shu ishini qilgan. Onalar urushini yomon koʻradi, ular dunyoga tiriklik hadya qiladi. Ular Yerdahayotni davom ettiruvchilardir.

Sarigul Bahodirovni olim va yozuvchi sifatida Qoraqalpogʻistonda tanimaydigan odam boʻlmasa kerak. Uning ajoyib asarlarini takror-takror oʻqib zerikmaymiz. Olima Qoraoʻzak tumanida tugʻilib voyaga yetgan. Yoshligidan kitob oʻqishga juda mehr qoʻygan. Maktabni tugatib, Nukus davlat pedagogika institutida taʼlim olgan. Besh yil faqat aʼlo bahoga oʻqigan. Ikkinchi kursdan boshlab oʻsha davrdagi davlat stipendiyasini olgan. “Aʼlo oʻqimasam boʻlmasdi, uydagilardan menga deyarli yordam kelmadi”, deb esladi u talabalik yillarini.

Keyin aspiranturada oʻqigan hamda akademik Marat Nurmuhamedov rahbarligida

“Zamonaviy qoraqalpoq hikoyalari” mavzusida ilmiy ish bilan shugʻullangan. 1970-yili OʻzR FA qoshidagi Til va adabiyot institutida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan.

Opa oʻquvchilik va talabalik davridayoq gazeta-jurnallarga maqolalar yoza boshlagan. Adabiy asarlari uchun yoshlar mukofotiga loyiq deb topilgan.

Olima Oʻzbekiston FA Qoraqalpogʻiston boʻlimi N.Davqorayev nomidagi tarix, til va adabiyot institutida oddiy xodimlikdan direktorlikkacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi. Institut direktori sifatida qoraqalpoq folklorining 100 jildligini chop ettirish uchun tashabbus koʻrsatgan va qoraqalpoq xalq ogʻzaki adabiyoti, ayniqsa, eposlarini nashrga tayyorlagan. “Qirgʻiz”, “Edigey” va boshqa eposlarni dunyoga tanitish maqsadida xalqaro simpoziumlar, konferensiyalar tashkil etgan, samarali mehnat qilgan.

Professor Sarigul Bahodirovaning el-yurt, ilm-fan yoʻlidagi xizmatlari munosib baholangan. U 1984-yilda fan va texnika sohasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor boʻlgan. 1993-yilda “Qoraqalpogʻistonda xizmat



koʻrsatgan fan arbobi” unvoni bilan taqdirlangan. 2004-yildan dunyo turkologlari assotsiatsiyasi aʼzosi. 2006-yilda xalq merosini saqlash boʻyicha N.Rerix nomidagi xalqaro mukofotga munosib koʻrilgan.

Sarigul opa 400 dan ziyod ilmiy asar, 20 dan ortiq roman, qissa, hikoyalar muallifi. U koʻplab xalqaro nashrlarning tahririyat aʼzosi hamdir. Anqara, Izmir, Koʻniyo, Vena, Delhi, Ufa, Qozon, Ostona, Turkiston, Olmaota, Bishkek kabi qirqdan ziyod shaharda tashkil etilgan xalqaro ilmiy konferensiya, simpozium, kongresslarda qoraqalpoq folklori boʻyicha maʼruza qilgan. Bonn universiteti, Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti va Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti chaqiruviga binoan turkiy xalqlar adabiyoti va folkloridan maʼruzalari oʻqigan.

Olimaning 1999-yili “Amudaryo” jurnalida chop etilgan “Toʻmaris va Kir” qissasini 2016-yili Muzaffar Ahmad oʻzbek tiliga tarjima qilib, “Oʻzbekiston” nashriyotida chop ettirgan. Shundan keyin yozuvchi mazkur asarini qayta

ishlab, 2018-yilda “Toʻmaris” nomi bilan “Navroʻz” nashriyotida qoraqalpoq tilida nashr ettirdi. “Men bu asarni yozish haqida Moskvada, doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlab yurganimda oʻylagan edim. Keyin bir haftada yozim tugatdim. Kitob sifatida nashr qilish yana ham masʼuliyatli. Shuning uchun qoʻlingizdagi kitobni tugallangan asar deb qabul qilishingiz mumkin”, dedi Sarigul opa yoshlar bilan suhbatda.

Bu yil 80 bahorni qarshi olgan Sarigul opa tom bʼnoda qoraqalpoq folklori va adabiyotshunosligining bilimdonidir. U axborotlashuv davrida yoshlar bilan tengmenga qadam bosib, yangi texnologiyalarni puxta oʻrganib olgan. Shuning oʻziyoq Sarigul opaning hayot va ijod yoʻli barchamizga birdek oʻnak boʻlishini koʻrsatadi.

Durdana PERDEBAYEVA,
Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti magistranti

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhir: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Oʻza yakuni — 02:25 Topshirildi — 02:35